

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A. Abduvaliyeva

Markaziy Osiyo o'rta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A. Nishonov	
Farg'ona vodiyisida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A. Aloxunov, B.B. Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A. Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X. Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X. Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V. Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M. Maximov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhohijrlari taqdiri	695
A.M. Maximov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK**K.A. Topvoldiyev**

Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
--	-----

H.K. Sabirov

Средняя Азия в путевых заметках Ф. С. Ефремова	706
--	-----

A.P. Kosimov

Конвергенции наследия Т.Мурода с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
--	-----

H.A. Jo'rayev, Y.I. Nishanov

Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
--	-----

H.M. Karimova

Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
--	-----

Y.I. Nishanov

Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
--	-----

I.N. Doronina

«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
--	-----

E.F. Gizduulin

Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
---	-----

X. Sharifiddinov

Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
--	-----

E.Ibragimova, N. Sharafutdinova

Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
---	-----

G.V. Abdullayeva

Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
---	-----

S.A. Xodjayev, Ch.I. Turg'unova

O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlilik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
--	-----

X.A. Abdulxamidova, D.U. Jamoliddinova

Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
---	-----

X.J. Jamolova

Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
---	-----

M.M. Xamidov

O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
---	-----

R.M. Umurzakov

Bola obrazining nazariy muammolari	761
--	-----

J.B. Sayidolimov

"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765
--	-----



UMUMINSONIY G'YOYALAR IFODASIDA IJODIY TA'SIRNING O'RNI
МЕСТО ТВОРЧЕСКОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В ВЫРАЖЕНИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ ИДЕЙ
THE PLACE OF CREATIVE INFLUENCE IN THE EXPRESSION OF PUBLIC IDEAS

Nishanov Yashin Izatullayevich

Farg'onan davlat universiteti rus filologiyasi kafedrasini dotsenti

Annotatsiya

Maqolada umuminsoniy g'oyalar ifodasida adabiy aloqa, ijodiy ta'sirning o'rni hamda ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Ezgulik, adolat, sadoqat, komillik tushunchalarining dunyo xalqlari orasida bir xil qabul qilinishi, ijtimoiy-maishiy turmushdagi yaqinliklar, ma'naviy-ma'nifly tarbiyatdagi ustuvor jihatlarning umumiyligi badiiy adabiyot namunalarida ham o'xshashlikni yuzaga keltirishi tahsil qilinadi. Sayyor sujet xususiyatlarni Yusuf qissasi asosida o'rganish bu boradagi nazariy fikrlarni boyitadi. Chunki Sharq xalqlari, xususan, ozbek adabiyotida keng murojaat qilingan mazkur sujet ko'p asrlik tarixga ega. Ozbek adabiyotida mukammal badiiy tus olgan ushbu asarning mukammal namunasini Durbek qalamiga mansubdir. Mumtoz adabiyotimizning mashhur namoyandalaridan biri bo'lgan Durbekning uslubi, dunyoqarashi, munosabati, pozitsiyasi, nuqtayi nazaridan kelib chiqib, u qalamga olayotgan vogelik markazida inson shaxsi va uning xarakteri, ma'naviyati, ruhiy olami turishi tadqiq etilgan.

Abstract

The article discusses the role and significance of literary communication, creative influence in the expression of universal ideas. It is analyzed that the same acceptance of the concepts of goodness, justice, loyalty, perfection among the peoples of the world, closeness in socio-domestic life, the totality of priority aspects in spiritual and educational education also create similarity in the samples of fiction. The study of the features of the traveling plot on the basis of the story of Joseph enriches the theoretical opinions on this matter. Because this plot, which is widely referred to in the literature of the peoples of the East, in particular Uzbek, has a centuries-old history. The perfect example of this work, which has become an excellent artistic in Uzbek literature, belongs to the durbek pen. From the point of view of the style, worldview, attitude, position, point of view of Durbeck, one of the famous figures of our classical literature, it was studied that the person and his character, spirituality, spiritual world stand in the center of reality, which he is pencil.

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение литературного общения, творческого влияния в выражении универсальных идей. Анализируется, что одинаковое восприятие понятий добра, справедливости, верности, совершенства у народов мира, близость в социально-бытовом быту, общность приоритетов в Духовно-просветительском воспитании порождают сходство и в образах художественной литературы. Изучение особенностей планетарного сюжета на основе рассказа Иосифа обогащает теоретические размышления на этом счет. Потому что этот сюжет, широко используемый народами Востока, в частности, в узбекской литературе, имеет многовековую историю. Прекрасный образец этого произведения, имеющего в узбекской литературе совершенный художественный тон, принадлежит перу Дурбека. Исходя из стиля, мировоззрения, отношения, позиции, точки зрения дурбека, одного из выдающихся деятелей нашей классической литературы, исследуется, как человеческая личность и ее характер, духовность, духовный мир стоят в центре реальности, которую он пишет.

Kalit so'zlar: Umuminsoniylik, milliylik, g'oya, badiiyat, sujet, o'zaro ta'sir, adabiy aloqa, ma'naviy kamolot, tarbiyaviy omillar.

Key words: universality, nationality, idea, artistry, plot, interaction, literary communication, spiritual maturity, educational factors.

Ключевые слова: универсальность, национальность, идея, художественность, сюжет, взаимодействие, литературное общение, духовная зрелость, воспитательные факторы.

KIRISH

Adabiyotimizning, xususan, ota-bobolarimizning tafakkur mevalari bo'lmish adabiy merosning hozirgi va kelgusi avlodlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga mustahkam zamin ekanligi haqida haqli ravishda ko'p ta'kidlangan.

Ijtimoiy turmushning bugungi va ertangi hayoti qay yo'ldan bormog'i lozimligini aniqlash va rejalahtirish uchun kechagi kunga, aniqrog'i o'tmishta nazar tashlash har qanday fan mutaxassislari uchun sinalgan haqiqatdir. Shunga ko'ra tarixiy, adabiy va madaniy merosimizning

ADABIYOTSHUNOSLIK

o'rganilmagan yoki nisbatan kam varaqlangan sahifalariga zehn solish, ularni Istiqlol mafkurasi, uchinchi renessansga poydevor qo'yilayotgan Yangi O'zbekiston sharoiti nuqtayi nazaridan xolis ilmiy tadqiq etish, mazkur manbalardan ibrat saboqlarini o'rganish – bugungi hur zamonamiz qadriga yetish va kelajakning izchil taraqqiyot yo'nalishini aniqlash uchun dasturilamal bo'lishi turgan gap. [1. 5-6]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng tarix uchun nisbatan qisqa fursat ichida o'tmish adabiyotimiz va tarixiy asarlarimizni o'rganishda to'g'ri va xolis yondashuv ustuvor tekshirish usuliga aylanmoqda. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islam dini ta'llimoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'llimotlar ham xalqimiz dahosidan baha olib boyib boradi.

Shunday ekan, har bir millat, xalq va mamlakatning jahon hamjamiyatidagi tutgan o'mni uning dunyo ilm-fani, san'ati va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi bilan birga ota-bobolari tomonidan qoldirilgan adabiy va madaniy merosning ahamiyati bilan ham o'lchanadi va qadrlanadi. Ana shu nuqtayi nazarga ko'ra o'tmishga nazar solsak, ko'hna Turonning buyuk tarixiy ijodkorlari beqiyos adabiy-madaniy meros qoldirgan dunyodagi eng ilg'or mamlakatlardan biri ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz. Ana shu boy adabiy-ma'naviy merosimizni qanday bor bo'lsa, shu holicha o'rganish, ilmiy jihatdan xolis tahlil etish va xalqqa taqdim etish imkoniyati yanada kengaydi. Bugungi kunda ko'p asrlik ijtimoiy tafakkurimiz hamda adabiyotimiz tarixining mutlaqo o'rganilmagan yoki yaxshi ochib berilmagan qirralarini yosh avlodga ko'rsatib berish, biroqlama talqin qilingan jihatlarini yangicha va xolislik bilan nazardan o'tkazish davr talabiga aylandi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari jahon adabiyotining ham eng yetuk, eng sara asarlari sirasidan joy olgan. Dunyo estetik tafakkuri taraqqiyotiga o'z ijodlari bilan ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz asrlar davomida bashariyatga ma'rifiy yuksalish, ma'naviy tozarish borasida ham saboq berib kelmoqda. Ana shu nodir adabiy merosni, eng avvalo, xalqimiz orasida targ'ib etish, ular zamiridagi badiiy yuksaklik, g'oyaviy teranlikni kishilar tushunchasiga yetkazish yo'riqlarini ishlab chiqish, takomillashtirish har doim ham muhim vazifalardan bo'lib kelgan. Jamiyat a'zolari ongida milliy mafkura hamda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga da'vat etilgan ta'lif muassasalarining faoliyati bu borada alohida ahamiyatga ega.

NATIJA VA MUHOKAMA

Har bir xalq pedagogikasida milliy merosga, xususan, milliy adabiyotning sara namunalari tayangan holda yosh avlodni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga qadimdan alohida e'tibor berib kelingan. Bu borada muslimon Sharqi pedagogikasi va adabiyotshunosligi o'ziga xos tajriba hamda an'analarga ega bo'lgan ulkan manbadir. Ularning birlamchi asosi, shubhasiz, muqaddas ilohiy asoslardir. Qur'oni Karim va muborak hadislarda insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashga, bunda har bir mo'minni ilm va ma'rifat sohibi bo'lishga chorlovchi abadiy da'vatlar mavjud.

Istiqlol bergen ulug' ne'matlardan yana biri shu bo'ldiki, xalqimiz ma'naviy boyligining tarkibiy qismi bo'lgan, axloq va odob tarbiyasidan tortib, ijtimoiy hayotdagagi muhim muammolargacha qamrab olgan diniy-falsafiy, axloqiy-ma'naviy qarashlar yana o'zining hayot dasturilamali sifatidagi faoliyatini davom ettira boshladi. Ulug' zotlar haqidagi ma'lumotlar deyarli har bir matbuot nashrida chop etilishiga yo'l ochildi. Pirovardida yaqin o'tmishda qat'yan qoralangan, namoyandalari esa muttasil ta'qib ostiga olingan diniy ta'llimotning mumtoz namunalari ko'p nusxada, joriy alifboda nashr etildi va kitobxonlarga yetkazilmoqda.

Mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan Durbekning o'lmas adabiy merosi necha asrlardan buyon muxlislarning, adabiyot muhiblarining sevimli ma'naviy mulkiga aylanib qolgan. Shoiring mahorat qirralari, ijod sirlari bir necha asrlardan buyon so'z san'atkorlari uchun tajriba maktabi bo'lib kelmoqda.

Yusuf bilan bog'liq sujet eng qadimiy va jahongashta adabiy hodisalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, so'z san'ati jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi sifatida insoniyat tarixining eng muhim qirralarini o'zida aks ettiradi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarida badiiy adabiyotning ilk namunalari yuzaga kelar ekan, ularning qahramonlari ma'bud va ma'budalar sifatida maydonga chiqqan. Durbek ana shu qadimiy qissani o'zaro adabiy ta'sir va xalq og'zaki ijodidan oziqlangan holda

mukammal adabiy asarga aylantira olgan siymolardan bo'lib, mumtoz adabiyotimiz ravnaqida yetakchi rol o'ynagan, so'z san'atini bemisl yuksaklikka ko'targan, badiiy tafakkur qudrati, asarlarida olg'a surilgan ilg'or umumbashariy g'oyalarining ahamiyati bugungi kunda ham muhim o'ringa ega bo'lgan qalam sohibidir.

Durbek ayrim o'ziga zamondosh bo'lgan kishilarning, avvalo shaxs sifatidagi fazilat hamda nuqsonlarini, ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'mini, qolaversa, fe'l atvori dagi xususiyatlarni real bayon etadi. Ularga baho beradi. "Yusuf va Zulayxo" muallifi yashagan tarixiy o'rta asrlar sharoitida bu o'ziga xos yangilik, aytish mumkinki, jasorat va katta qadam edi.

Ulug' shoirning "Yusuf va Zulayxo" asari uning adabiy merosida asosiy o'rinnlardan birini egallaydi. Doston betakror badiiyati, epik ko'lami, g'oyalar qamrovi, obrazlar tarkibi jihatidan o'ziga xos adabiy obidadir.

Yusuf haqidagi sayyor sujetning umumbashariy g'oyalar tashishi, badiiy obrazlarning mukammalligi, xarakterlarning hayotiyligi mazkur sujetning zamonlar osha yashab kelayotganiga sabab bo'lgan xususiyatlardan biridir. Bu sujetga murojaat qilgan har bir so'z san'atkori obrazlarning tashqi portretiga oro beribgina qolmasdan, ularning ruhiy-ma'naviy olamiga ham yo'l ochdi. Bir so'z bilan aytganda, asardagi qahramonlar, ayniqsa, xotin-qizlar obrazlari borgan sari muallifning yuksak ideallarini tashish bilan birga, hayotga juda yaqin keldilar. Ko'plab shoirlar o'z zamonasidan ancha olg'a ketib, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagisi o'rniga yuksak baho berdilar, ularga jinsi nuqtayi nazaridan emas, insoniy fazilatlari asosida munosabat bildirdilar. [3. 314]

Sharq adabiyoti tarixida yuzlab ishq-muhabbat mavzusida dostonlar yaratilgani ma'lum. Ko'plab qalam sohiblari ushbu mavzuga qo'l urib, xotin-qizlarning insoniy fazilatlari, shaxs erki va huquqi bilan bog'liq muammolarni o'ziga xos yo'sinda badiiy talqin qilishga uringanlar. Ammo barcha qalam sohiblari ham Sharqda "qisasul ahsan" - ya'ni eng go'zal qissa deya e'tirof etiladigan Yusuf va Zulayxoning pok ishq-muhabbatini badiiy ifodalashda Durbek ko'tarilgan yuksaklikka ko'tarila olmaganlar.

Durbek badiiy ijodga qo'l urib, turli obrazlar yaratayotganida unga jamiyatdagagi tabaqalar vakillarining psixologiyasi, turish-turmushini yaxshi bilganligi qo'l keladi. Natijada shoir yaratgan obraz va xarakterlar hayotiyligi ta'minlanadi. [2. 66]

Biz muayan asarda sof sevgi-muhabbat, sadoqat tarannumini ham, hijron azoblari-yu, turmush mashaqqatlarini ham qahramonlarning ruhiy olami orqali qabul qilamiz, biz ularni chuqur anglaysiz, ular bilan birga quvonamiz, g'am chekishsa, hamdard bo'lamic. Bu ham bo'lsa, muallifning o'z qahramonlari ruhiy olamini chuqur his qilganligi, bu olam sirlarini bizga ham yetkaza olganligidan nishonadir. Yusuf timsolidagi komil inson, shu tariqa, ulug' shoir adabiy merosining yetakchi obraziga, asosiy qahramoniga aylanadi. Uning orzu-armonlari, intilishlari, kurashlari, dardi, tashvishi, mayjud olam haqidagi tasavvurlari Durbek ijodida badiiy tadqiq obyektiga asos bo'lib xizmat qiladi. Doston muallifi o'z davri qarashlari va tushunchalari asosida Insonni ulug'lar ekan, tasavvuf tariqati bu borada unga eng qulay vosita bo'ldi. Chunki tasavvuf, uning ilohiy va dunyoviy g'oyalari nafaqat Durbekning, balki uning zamondoshlari bo'lgan ijodkorlarning ham ilhom manbai, o'zining hur fikrlarini ifodalash vositasi bo'lganligi shubhasiz. Shu sababli ham shoir ijodidagi insonning ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan barkamolligi asarning yetakchi g'oyalaridan biridir.

XULOSA

Sayyor sujet xususiyatlarini Yusuf qissasi asosida o'rganish bu boradagi nazariy fikrlarni boyitadi. Chunki Sharq xalqlari, xususan, o'zbek adabiyotida keng murojaat qilingan mazkur sujet ko'p asrlik tarixga ega. O'zbek adabiyotida mukammal badiiy tus olgan ushbu asarning mukammal namunasi Durbek qalamiga mansubdir. Mumtoz adabiyotimizning mashhur namoyandalaridan biri bo'lgan Durbekning uslubi, dunyoqarashi, munosabati, pozitsiyasi, nuqtayi nazaridan kelib chiqib, u qalamga olayotgan voqelik markazida inson shaxsi va uning xarakteri, ma'naviyati, ruhiy olami turadi. Garchi har bir yozuvchi sujet va kompozitsiya tanlashda o'ziga xos usul qo'llasa-da, shaxs obrazi va xarakter yaratishda, voqealar tahlili, muammolar tadqiqida muayan muhit vakili bo'lgan qahramonning taqdiridan ma'naviy-ma'nifiy, axloqiy-falsafiy xulosalar va yechimlar topishga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - T.: O'zbekiston, 2021
- Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi T.: «O'qituvchi», 1976

ADABIYOTSHUNOSLIK

3. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. - T.; «Fan», 1996
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. - T.; 2006
5. Shayx Ahmad Taroziy. «Fununul balog'a». - T.; "Xazina" 1996